

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
127- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lim massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZM SOHASIDAGI BANDLIK SHAKLLARIGA TA'SIRI

Rasulova Muxabbat Teshabayevna

Katta o'qituvchi

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Assistent, mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0009-1241-9339

Toshkent davlat agrar universiteti (TDAU), O'zbekiston,

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli transformatsiyaning rivojlanishi ko'pgina iqtisodiy faoliyat turlarining, jumladan turizmning ishlash modelini tubdan o'zgartirish, raqamli transformatsiyani milliy xavfsizlikni ta'minlash, mahalliy kompaniyalarning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal etishga qaratilganligini yoritadi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning shart-sharoitlari va omillari hamda turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlashning hozirgi holatini ko'rib chiqish orqali uning rivojlanishiga muhim turtki beruvchi omillar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, turizm, raqamli iqtisodiyot, integratsiya, texnologiya.

Abstract: The development of digital transformation is aimed at fundamentally changing the operating model of many types of economic activities, including tourism, as well as addressing issues of national security and enhancing the global competitiveness of local companies. The significance of this study lies in reviewing the current conditions and factors for the formation of the digital economy and the provision of information on tourism activities, which are considered key drivers of its development.

Keywords: digital transformation, digital technologies, tourism, digital economy, integration, technologies.

Аннотация: Развитие цифровой трансформации направлено на коренное изменение модели функционирования многих видов экономической деятельности, в том числе туризма, а также на решение задач, связанных с обеспечением национальной безопасности и повышением глобальной конкурентоспособности местных компаний. Значимость данного исследования заключается в том, что рассмотрение современных условий и факторов формирования цифровой экономики, а также обеспечения информацией туристической деятельности рассматривается как важнейший импульс её развития.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровые технологии, туризм, цифровая экономика, интеграция, технологии.

KIRISH

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida salmoqli o'rin egallashi va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati va o'zni sezilarli darajada muhimdir. Iqtisodiyotning barcha sohalari kabi turizm sanoatida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir qator qulayliklar yaratadi.

Turizm sanoati raqamli asrga mos kela oladigan barcha aviatsiya, sayohat, oziq-ovqat, ichimliklar va turar joy sektorlarini o'z ichiga oladi. Turizm sohasidagi ayrim texnologik o'zgarishlar va ishlanmalar jamiyat hamda biznes uchun foyda keltirayotgani hech kimga sir emas. Raqamli dunyo rivojlanib borgan sari mijozlarning xatti-harakati ham o'zgarib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar turizm sanoatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mijozlarning tajribasi, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish, tadbirlar, xonalar uchun qulayliklar va biznes taklif etayotgan boshqa xizmatlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki odamlar bir necha tugmachani bosish orqali sayohat yo'nalishlarini osongina tanlash imkoniyatiga ega.

So'nggi yillarda "raqamli transformatsiya" atamasi tez-tez tilga olinayotgani tabiiy hol, albatta [1]. Hozirgi kunga kelib deyarli har bir inson o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator qulaylik va afzalliklarga ega bo'lgan kamida bitta raqamli qurilmaga egadir. Axborot texnologiyalari faqat turizm industriyasini rivojlantirishda emas, balki iqtisodiyotning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, turistik tashkilotlarni boshqarishda va shu orqali mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga hissa qo'shishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'zni beqiyosdir.



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 22-fevral kuni soha va hududlarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mavjud 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o'tkazilgan bo'lib, ulardan o'tgan yili 12 millionga yaqin aholi foydalangan. Raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdagi ma'lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor qilingan [2]. Yig'ilishda bir qator kamchiliklar tahlil qilinib, galdagi vazifalar belgilandi. Jumladan, Raqamli texnologiyalar vazirligiga 26 ta axborot tizimini Yagona davlat xizmatlari portaliga birlashtirib, undagi xizmatlar sonini 570 taga yetkazish vazifasi topshirildi. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlar eksportini kelgusida 1 milliard AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun kamida 100 ming nafar malakali dasturchi, IT-arxitektor, operator va muhandislar tayyorlanishi zarur. Hududlarda yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish lozim. Xorijiy IT-kompaniyalar sonini ko'paytirish uchun yanada qulay muhit yaratish zarur. Aholi va tadbirkorlar uchun eng zarur bo'lgan yangi elektron xizmatlarni ishga tushirish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, raqamlashtirish natijasida yuzaga kelayotgan yangi xizmat ko'rsatish turlari, ish o'rinlarining transformatsiyasi va bandlik shakllarining o'zgarishi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda Z.O. Raximovning bir qator asarlari alohida e'tiborga loyiq. Muallif o'zining "Turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari" (2021) nomli monografiyasida turizm infratuzilmasining raqamli omillarga qanchalik bog'liq bo'lib qolganini tahlil qilgan. Ayniqsa, mehmonxona xo'jaligida avtomatlashtirilgan bandlik tizimlari va mijozlarga xizmat ko'rsatishda inson omilining qisqarishi raqamli iqtisodiyotga xos hodisa sifatida ko'rsatilgan.

Shuningdek, Raximov Z.O., Ismailov N.I. tomonidan tayyorlangan "Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati" nomli maqolada (2020-yil, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti) raqamli texnologiyalar turizm sohasida mehnat bozoriga qanday ta'sir qilayotgani ochib berilgan. Mualliflar, xususan, turizm xizmatlarini bron qilish, virtual gid xizmatlari, elektron xaritalar va mobil ilovalarning keng qo'llanilishi natijasida oddiy xizmat ko'rsatish lavozimlariga ehtiyoj kamayib borayotganini qayd etishgan.

Bundan tashqari, "Turopereyting" (2022) darsligida Raximov Z.O., Ibadullaev N.E. va Xaitboev R. raqamli transformatsiya sharoitida turizm agentliklarida yuz berayotgan bandlik shakllarining o'zgarishini tahlil qilgan. Xususan, an'anaviy ofis ishchilari o'rniga masofaviy operatorlar, onlayn maslahatchilar, kontent yaratuvchilar va ijtimoiy tarmoqlar orqali sotuvni boshqaruvchilar kirib kelayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Raqamli iqtisodiyotning makro darajadagi yondashuvlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida¹, ya'ni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham o'z aksini topgan. Unda raqamli iqtisodiyotni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sohasida, xususan turizmga yangi ish o'rinlarini yaratish, masofaviy bandlikni qo'llab-quvvatlash va onlayn xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, SamISda o'tkazilgan "Turizmga innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro konferensiya (2020-yil, 3-iyun) materiallarida raqamli xizmatlarning rivojlanishi fonida turizmga bandlikning zamonaviy shakllari – freelance, platforma ishchiligi (gig economy), "virtual mehmonxona operatorlari" kabi yangi kasblar yuzaga kelayotgani ta'kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot ta'sirida turizm sohasida bandlik shakllari sezilarli darajada o'zgarib borayotgani, ayniqsa, masofaviy ish, avtomatlashtirilgan xizmatlar, raqamli marketing mutaxassisliklariga talab ortayotgani ko'plab ilmiy ishlarda asoslangan. Biroq ushbu mavzuda mintaqaviy kontekstdagi empirik tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu sohada izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli transformatsiyaning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda raqamli iqtisodiyot, turizm sohasi va bandlik munosabatlariga oid milliy va xorijiy olimlar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda davlat strategik hujjatlari tahlil qilindi. Ayniqsa, Raximov Z.O., Ismailov N.I. kabi mualliflarning raqamli transformatsiya va turizm integratsiyasiga oid ishlari asosiy nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi va boshqa ochiq manbalardan olingan 2019–2023-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida turizm sohasida bandlik va haqiqatda ishlangan ish vaqti (kishi-soat) ko'rsatkichlari o'rganildi. Maqolada keltirilgan 1–3-jadvaldagi real raqamlar orqali raqamli texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan bandlik tendensiyalari chuqur tahlil qilindi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

Tadqiqot davomida turizm xizmatlarining turli yo'nalishlarida — xususan, joylashtirish, umumiy ovqatlanish, transport, agentlik xizmatlari kabi segmentlarda bandlik hajmining yillar kesimidagi o'zgarishi solishtirildi va dinamik jihatdan tahlil qilindi. Bu orqali raqamli transformatsiya qaysi xizmat turlarida kuchliroq aks etayotgani aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, maqolada keltirilgan amaliy misollar — masalan, Qozog'iston Respublikasidagi gamifikatsiyalashgan turizm loyihalari, O'zbekistondagi davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha Prezident farmonlari — sifat tahlili yondashuvi orqali o'rganildi. Bu metod raqamli iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish tizimiga ta'sirini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy-induktiv yondashuvdan ham foydalanildi. Turli raqamli texnologiyalar, jumladan mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, sun'iy intellekt asosida ishlovchi xizmatlar kabi vositalarning qo'llanilishi asosida bandlik shakllarining o'zgarishi mantiqiy tahlil qilindi va umumlashtirilgan xulosa hamda takliflar shakllantirildi.

Maqolada taqdim etilgan statistik jadval va grafiklar asosida vizual taqdimot metodlari orqali bandlikdagi o'zgarishlar raqamlar bilan yoritildi. Bu metod turizm tarmoqlarida ro'y berayotgan real o'zgarishlarni ko'rgazmali va tushunarli shaklda namoyon etishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, turizm sektori hajmi va ishchilar soni bo'yicha tahlil qilinsa, mamlakatlar va barcha iqtisodiy sohalar uchun muhim mavqega ega ekanligini aytilish mumkin. Turizm sektori yuqori darajadagi bandlikni ta'minlovchi tarmoqlardan biridir. Axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar va ishlanmalar tufayli ushbu sektor ulkan texnologik sohaga aylangan hamda yangilik va o'zgarishlarga duch kelgan. Yuzaga kelgan bu innovatsiyalar va o'zgarishlar natijasida sektordagi manfaatdor tomonlar va turistlarning sayohatga bo'lgan qarashlari o'zgarishi mumkin. Axborotga ega bo'lish nihoyatda qulay va tez bo'lgan bunday bir davrda odamlarning istalgan joyda muloqot qilishlari va axborot almashishga bo'lgan talablari turizm sektorida ham ijobiy natijalar berishi mumkin [3].

Turizm faoliyatida foydalaniladigan barcha turdagi tovar va xizmatlar sektor doirasidagi raqobatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday texnologik ilovalar natijasida sayohat qilish istagidagi sayyohlar sonining sezilarli darajada ortayotgani kuzatilmoqda. Turizm axborot texnologiyalarini qo'llash sayyohlik tashkilotlari mahsuldorligini oshiribgina qolmay, ularning faoliyatini yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Qisqacha aytganda, axborot texnologiyalari ilovalari yordamida, ayniqsa, turizm biznesi sezilarli yutuqlarga erishadi va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Sayyohlik kompaniyalari va tashkilotlaridagi ishchilar soni (kishi hisobida)²

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Jami (o'rindoshlarsiz)	2 920	2 330	1 956	2 793	3 490
Shundan:					
— erkaklar	1 695	1 324	1 128	1 837	2 241
— ayollar	1 225	1 006	828	956	1 168
— oliy	1 595	1 229	1 048	1 285	1 862
— shundan: kasbiy sayyohlik ta'limi	404	249	246	256	379
— o'rta maxsus	1 175	935	716	1 345	1 344
— shundan: kasbiy sayyohlik ta'limi	134	88	72	125	122
— boshqa	150	166	192	163	203
O'rindoshlar	313	157	158	342	387
Sayyohlik sohasida xodimlarni o'qitish xarajatlari, ming so'm	534 825,5	214 835,4	74 649,0	-	-

Turizm sohasida robotlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish texnologiyalari va avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanishning eng muhim yo'nalishlari — restoranlar, mehmonxonalar, tematik parklar, ko'ngilochar bog'lar, tadbirlar, uchrashuvlar, aeroportlar, avtoulavlarni ijaraga berish kompaniyalari, turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, turistik axborot markazlari, muzeylar va san'at saroylaridir.


2 TSUE_SCOPUS_2000-2024_03.11.2024



Hozirgi kunda yo'nalishlar o'zlarining sayyohlik rejalarini, asosan, raqamli muhitni hisobga olgan holda, internetda marketing strategiyalarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladigan rebrendingni tanlaganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Masalan, qo'shni Qozog'iston Respublikasi yangi o'yin orqali mamlakatning tabiiy va tarixiy go'zalliklarini rivojlantirish hamda butun dunyoga tanitishni maqsad qilgan. Mamlakat bo'ylab tashrif buyurilishi mumkin bo'lgan 100 xil yo'nalishda o'tkaziladigan ushbu o'yinda qo'lga kiritilgan virtual pul, birinchi navbatda, samolyot chiptasini sotib olish va o'yin darajalarini oshirish uchun sarflanishi mumkin.

O'yinning ayrim bosqichlarini faollashtirish uchun Qozog'iston Respublikasiga bevosita tashrif buyurish talabi mavjuddir (1-rasm).



1-rasm

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, turizm sohasida ham ayrim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Turizm sohasida texnologiyalar va ular bilan bog'liq ishlanmalarning ommalashuvi hamda insonlarning bir-birlari bilan tajriba almashishida raqamli muhitning ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda.

Aytish mumkinki, raqamlashtirish boshqa sohalar singari turizm sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya davrida, agar turizm biznesi va destinatsiyalar boshqaruvning innovatsion yondashuviga ega bo'lmasa, kelajakda ular ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. Turizm tarmoqlaridagi bandlik (yuridik shaxslardagi ishlovchilar soni), kishi soni bo'yicha yildan yilga o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.³

Mahsulotlar (xizmat turlari)	2019	2020	2021	2022
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar	54 536	49 805	51 524	53 451
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari	66 646	54 101	67 946	73 111
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari	5 273	4 149	5 117	5 104
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari	70 919	50 206	48 166	45 906
5. Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlari	2 007	1 592	2 021	1 779
6. Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	1 788	1 225	1 364	1 155
7. Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar	3 192	2 525	2 410	3 103
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar	11 042	11 545	12 492	12 315
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar	16 028	15 666	17 013	18 689
Jami:	231 431	190 814	208 053	214 613

Ma'lumki, an'anaviy marketing usullari avvalgi davrlardagi kabi bugungi kunda ham amalda emas. Hozirda hamma narsa o'zgargan. Korxonalar va manzillar omon qolish uchun raqamli tizimga o'tishlari kerak. Sayyohlar ko'plab raqamli imkoniyatlarga ega: smartfonlar, planshetlar, bulutli texnologiyalar va boshqalar — bular bugungi kunda ajralmas vositalarga aylangan.

Ushbu raqamli imkoniyatlar va texnologik qurilmalar sayyohlarning sayohat oldidan va undan keyingi xatti-harakatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Sayyohlik korxonalari va destinatsiyalari sayyohlarni jalb qilish hamda ularni sodiq mijozlarga aylantirish uchun nafaqat sayohat oldidan, balki sayohat jarayonini ham o'z ichiga olgan yondashuvni qo'llashlari zarur.


Turistlarning ob'ektda yoki belgilangan joyda vaqt o'tkazishlari davomida ularni kuzatib borish, ularning tajribalarini tushunish va bu tajribani raqamli muhitga ijobiy tarzda yetkazilishini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiya natijasida shakllangan raqamli jamiyat insonlarning vaqt va makon haqidagi tasavvurini o'zgartirmoqda (3-jadval).

3-jadval. Turizm tarmoqlaridagi bandlik (haqiqatda ishlangan ish vaqti), kishi-soat.⁴

Mahsulotlar (xizmat turlari)	2019	2020	2021	2022
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar	92 990 367	70 589 826	87 431 510	88 694 792
2 Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari	110 249 174	74 492 875	105 805 453	116 757 348
3. Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari	10 605 518	8 442 247	10 115 095	8 400 314
4. Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari	116 974 245	71 579 247	70 619 539	77 576 630
5. Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlari	2 498 410	1 967 249	2 828 471	2 954 453
6. Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	2 887 043	1 608 274	2 027 008	1 789 137
7. Turizm agentliklari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar	5 223 752	3 180 090	3 446 019	4 565 234
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar	21 140 898	22 297 012	19 715 243	22 504 531
9. Sport va dam olish bo'yicha xizmatlar	28 143 138	27 089 249	28 715 892	32 478 620
Umumiy xizmatlar hajmi	390 712 545	281 246 069	330 704 229	355 721 059

Dastlab individual hayotda sodir bo'lgan bu o'zgarishlar, keyinchalik individuallikdan tashqariga chiqib, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan barcha tarmoqlar va ijtimoiy hayotga ta'sir qiladi. U ta'sir qilgan va o'zini ko'rsatgan sohalardan biri — bu turizmdir [4] (2-rasm).



2-rasm.

4 TSUE_SCOPUS_2000-2024_03.11.2024



Raqamli transformatsiya bugungi kungacha turli bosqichlar va har bir bosqichdagi texnologik o'zgarishlar orqali rivojlanib keldi. Bu rivojlanishlar faqat sanoat inqilobi bilan chegaralanib qolmay, balki ijtimoiy hayotni ham turli darajalarda o'zgartirmoqda.

Turizmdagi ushbu o'zgarishlar fonida bugungi kunda virtual turizm tushunchasi birinchi o'ringa chiqdi va tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tajriba orqali sayyohlar virtual olamdagi, hech qachon tashrif buyurish imkoniga ega bo'lmagan joylarga "tashrif buyurish" va sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin [5].

Ijtimoiy tuzilma o'zgarib bormoqda va dunyoga yangi texnologiyalar bilan ulg'aygan yangi avlodlar kirib kelmoqda. Bu raqamli avlod transformatsiyaga oson moslashadi, shuningdek, virtual turizm faoliyatini tezroq tashkil qiladi va uni asrab qoladi.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlari aholisi internet xizmatlaridan faol tarzda foydalanmoqda. Ushbu global tarmoq orqali ular o'zlari uchun butunlay notanish, ya'ni umri davomida hech qachon ko'rmagan mamlakatlarning tarixi va bugungi kundagi holati haqida bir necha daqiqada ko'plab ma'lumotlar to'plash imkoniyatiga ega. Bu esa, o'z navbatida, turizm rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadi.

Shunday ekan, turizm sohasini takomillashtirish va rivojlantirishda raqamli transformatsiyalardan foydalanish bir qancha imkoniyatlar eshigini ochadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotni joriy etish jarayonida turizm biznesini rivojlantirishda ichki omillar katta rol o'ynaydi. Bu omillar sayyohlik kompaniyalarining mikro darajasida shakllanadi. Ichki omillarga raqamlashtirish siyosati, kompaniyaning turizm strategiyasi, eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni rivojlantirish, kompaniya rahbariyati tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlarining yuqori darajasi, shuningdek, tashkiliy va texnik jihatdan innovatsiyalarni amalga oshirishga tayyorgarlik kiradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab iqtisodiy faoliyat turlarini, jumladan, turizmni infratuzilma bilan ta'minlashda ham sezilarli darajada o'zgartiradi. Raqamli iqtisodiyotning asosi — bu katta hajmdagi axborotni qayta ishlash ekanligini inobatga olsak, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning yuqori texnologiyali tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi. Potensial sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarni bron qilish, hudud bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot, foydalanuvchi reytinglari va sharhlarini taqdim etish kabi keng funksiyalarni bajaruvchi mobil texnologiyalarning faol rivojlanishini kutish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot, shu bilan birga, turizm korxonalarining potentsial yangi shakllarini vujudga keltiradi. Kadrlar infratuzilmasi sohasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ijtimoiy hayotimiz va sayyohlik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda. Jahon turizmi sohasida yangi, yagona axborot makoni shakllanmoqda, turizmni boshqarish va axborot bilan ta'minlash tizimi izchil ishlab chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Raximov Z.O. *Turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari*. Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2021. – 212 bet.
3. Raximov Z.O., Ibadullaev N.E., Xaitboev R. *Turopereyting*. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 396 bet.
4. Raximov Z.O., Ismailov N.I. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati. // *Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi*. – Nukus, 2020-yil, 3-son (ISSN 2010-9075). – B. 42–45.
5. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi. // SamISda o'tkazilgan "Turizmga innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamISI, 2022. (2020-yil, 3-iyun).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100